RAUF PARFI IJODIDA DEYKSISNING QO‘LLANILISHI

Madaminova Sehriyo Turg‘unboy qizi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23151586

Annotatsiya: Til birliklarining pragmatik jihatdan tahlil qilinishi ularning nutqiy imkoniyatlarini yanada chuqur aniqlash va tushunish imkonini beradi. Deyksis tushunchasi pragmatikaning asosiy tadqiqot obyekti sifatida til birliklarining nutq vaziyati, kontekst bilan bog‘liq pragmatik tomonlarini tadqiq etishni talab qiladi. Ushbu maqolada Rauf Parfi ijodida deyktik birliklarning ifodalanishi va ularning pragmatik ahamiyati yoritilgan.
Tayanch tushunchalar: deyksis, belgi deyksisi, emotsional deyksis, propozitiv deyksis, ijtimoiy holat deyksisi.

Аннотация: Прагматический анализ языковых единиц позволяет более глубоко выявить и понять их речевые возможности. Понятие дейксиса как основного объекта исследования прагматики требует изучения прагматических аспектов языковых единиц, связанных с речевой ситуацией и контекстом. В данной статье освещаются выражение дейктических единиц в творчестве Рауфа Парфи и их прагматическое значение.
Ключевые слова: дейксис, дейксис признака, эмоциональный дейксис, пропозициональный дейксис, дейксис социального статуса.

Abstract: The pragmatic analysis of language units allows for a deeper identification and understanding of their speech potential. The concept of deixis, as the primary object of pragmatic research, requires examining the pragmatic aspects of language units related to the speech situation and context. This article highlights the expression of deictic units in the works of Rauf Parfi and their pragmatic significance.
Keywords: deixis, token deixis (feature deixis), emotional deixis, propositional deixis, social status deixis.

Deyksis hodisasiga olimlar tomonidan turlicha munosabatlar bildirilgan. Jumladan, N.Volkov, V.Jura, F.Lenz, E.Benvenist, V.Genshteyn, I.Sternina, Lyons, K.Byuller, Ch.Fillmor, R.Lakoff, V.Shaxovskiy, A.Kravchenko, Ye.Paducheva kabilar deyktik munosabatlarning turli qirralarini talqin qilgan. O‘zbek tilshunosligida A.Nurmonov, Sh.Safarov, M.Hakimov, R.Davlatova kabi tilshunoslar deyksis tushunchasiga izoh berganlar. Jumladan, R.Davlatova o‘zbek tilida deyksisning bir qancha turlarini izohlab o‘tgan. [Davlatova, 2020:135] Sh.Safarov esa deyktika atamasini pragmatika atamasi bilan o‘rindosh sifatida bemalol qo‘llash mumkinligini aytgan va bunda deyksis hodisasining pragmalingvistik tahlili ahamiyatga ega ekanligi inobatga olingan. [Safarov, 2008:178]

Nutqning ishora qiluvchi birliklarisiz, ya’ni deyktik birliklarsiz ifodalanishi nutqda qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin. Bu haqida B.A.Serebrannikovning fikrlari muhim ahamiyatga egadir: “Deyksis inson nutqiy faoliyatining o‘ziga xosligidir. Jonsiz narsalar olamida hech qanday deyktik vositalar uchramaydi va bunga ehtiyoj ham mavjud emas. Bir predmetning boshqa predmetlardan ajratib ko‘rsatilishi, uning o‘rniga ishora qilinishi bilan

predmet o‘z xususiyatini o‘zgartirmaydi. Insonga deyksis nutq mo‘ljalini olish uchun zarur. Deyktik birliklardan mahrum etilgan nutq tinglovchi uchun umuman tushunarsiz bo‘lib qolishi mumkin”. [Davlatova, 2020:12] Demak, deyksis hamda nutq faoliyati o‘zaro chambarchas bog‘liq. Deyksis nutqda til birliklarining ishoraviylik xususiyatini namoyon qiladi. Matn tarkibida “ishora qilish” vazifasini bajaruvchi birliklar deyktik birliklar hisoblanadi. T.Misaylova deyksisga nutqiy vaziyat qismlarini aktuallashtirish usuli, deyktik birliklarga esa jumlaning aktual qismi sifatida baho beradi. [Мисайлова, 2005:24] Haqiqatan ham, deyktik birliklar muloqot jarayonida kommunikantlarning diqqatini jalb qiluvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. “Deyktik birliklarning ishora obyektiga ko‘ra o‘zbek tilida deyksisning quyidagi turlarini farqlash mumkin: shaxs, predmet, belgi, miqdor, makon, zamon, ijtimoiy, emotsional, propozitiv, diskurs deyksisi. Deyksisning qayd etilgan turlari nutqda o‘zbek tilining fonetik, leksik, morfologik va sintaktik sath birliklari orqali hosil bo‘ladi. Albatta, o‘zbek tilidagi deyksisning bunday turlari va ishora birliklarining har biri alohida tadqiq obyekti bo‘la oladi”. [Davlatova, 2020:17]

Manbalarda deyksis turlari turlicha tasnif qilingan. M.Xujamkulova tadqiqot ishlarida deyksisning shaxs deyksisi, makon deyksisi, zamon deyksisi, diskurs deyksisi, sotsial deyksis kabi turlarini ko‘rsatib o‘tgan. [Xujamqulova, 2023:138] R.Davlatova esa deyksis va uning turlari bo‘yicha qilgan tadqiqot ishida deyksisni turlarga ajratishda uni hosil qiluvchi deyktik birliklar muhim ahamiyatga ega ekanligini aytgan va ishora obyektiga ko‘ra deyksisning quyidagi turlarini keltirib o‘tgan: shaxs, predmet, makon, belgi, miqdor, ijtimoiy, emotsional, propozitiv va diskurs deyksisi. Ushbu tasnif asosida ayrim deyksis turlarini Rauf Parfi she’rlari misolida ko‘rib chiqamiz.

Belgi deyksisi. Nutqda muayyan til birliklari orqali belgiga ishora qilinishi belgi deyksisini hosil qiladi. O‘zbek tilida belgiga nisbatan qo‘llanuvchi ko‘rsatish, belgilash, so‘roq, gumon, bo‘lishsizlik olmoshlari; predmet belgisiga ishora qiluvchi sifatdosh va ayrim nisbiy sifatlar; kishilar belgisiga ishora qiluvchi laqab, taxallusni ifodalovchi otlar belgi deyksisini hosil qiladi. [Davlatova, 2020:21] N.D.Arutyunova belgi deyksisini tasniflar ekan, belgiga ishora qiluvchi til birliklarini pragmatik semantikaning asosiy mexanizmlarini namoyon etuvchi birliklar sifatida qayd etadi.[Арутюнова, 1999:187]

Bu qanday oroldir, osmon ko‘rinmas,
Bu qanday daryodir, ko‘rinmas sohil, Biz shu qadar nochormiz, oh sevgilim!

Ushbu misralarda belgi deyksisi “qanday” so‘roq olmoshi orqali yuzaga kelgan. “Qanday” olmoshi “orol” va “daryo” so‘zlarining o‘ziga emas, balki ularning muayyan belgi-xususiyatiga ishora qilmoqda. Mazkur belgi keyingi “osmon ko‘rinmas”, “ko‘rinmas sohil” birikmalari orqali ochib beriladi.

Emotsional deyksis. Emotsional deyksis shaxsning (aniqrog‘i – lisoniy shaxsning) voqelik bilan munosabati natijasidir va uning ifoda vositasi til qurilishining turli sathlariga oid lisoniy birliklardir. [Safarov, 2008:232] Deyksisning bu turida so‘zlovchining emotsional holati, uning voqelikka bahosi namoyon bo‘ladi.

Emotsional holatga ishora qiluvchi faol birliklardan biri his-hayajon undovlaridir. Rauf Parfi ijodida qo‘llangan undov so‘zlar ham lirik qahramonning iztirobi, sog‘inchi, hayrati, armoni, hayajonini ko‘rsatadi.

Faqat qayga ketding, qaylarda qolding
Oh, qanday yashayman sensiz — sevgisiz.

Sohilda bir o‘zim. Dengiz qorong‘u.
Yelkansiz kemaning ichinda shubham,

Bu misrada kelgan “oh” undovi oddiy leksik birlik emas, balki so‘zlovchining ichki ruhiy holatiga ishora qiluvchi emotsional deyktik birlik sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, o‘zbek tilida ayrim fe’llar, taqlid so‘zlar, his-hayajon va ritorik so‘roq gaplar , qarg‘ish va duolar ham nutq egasining emotsional holatiga ishora qilishi mumkin.

Aytmasang bo‘lardi-**ku** shularni, **evoh,**
O‘zim talab qildim**mi** haqiqatni,
Qanday yashayman qolgan umrimni endi?!

Yuqoridagi parchada nafaqat undov so‘z, balki ritorik so‘roq hamda yuklamalar ham emotsional deyksisni yuzaga chiqarmoqda.

Propozitiv deyksis. Nutqda muayyan vaziyat, voqelik yoki axborotga til birliklari orqali ishora qilinishi propozitiv deyksisni hosil qiladi. Propozitsiyaga ishora qiluvchi deyktik birliklar oldindan ma’lum bo‘lgan yoki muloqot jarayonida tilga olingan voqelikka ishora qiladi. Bunday deyktik birliklar nutqning mazmuniy tuzilishini murakkablashtiradi. Masalan:
O‘tkinchi g‘amlardan tanamda titroq,
Rostmi shu? She’r tug‘ar emish alamlar?.. Goho xo‘rlab, tishlab o‘tdilar, biroq Ona Sen bilan kechgan ey ilohiy damlar...

Bu yerda “shu” olmoshi alohida predmetga emas, keyingi “she’r tug‘ar emish alamlar?” gapiga ishora qilib propozitiv deyksisni hosil qilmoqda. Yoki quyidagi parchani olaylik:
U Laylo atagan she’riyat,
Majnuningni nega tashlading? Shu edimi oshiqqa qismat Muqaddas ko‘zlarni yoshlading?

Bu parchada esa ko‘rsatish olmoshi orqali hosil qilingan propozitiv deyksis lirik qahramonning ayni damgacha boshidan kechirgan barcha azoblari, Layloning uni tashlab ketishi va Majnun holiga tushishi kabi butun bir voqeliklar zanjirini (fikr yoki propozitsiyani) o‘z ichiga qamrab olmoqda.

Ijtimoiy holat deyksisi. Tilshunoslikda kommunikantlarning ijtimoiy mavqeyiga ishora qilish ijtimoiy holat yoki sotsial deyksis nomi bilan yuritiladi. Muloqot qiluvchilarning ijtimoiy maqomi deganda ularning mavqeyi, kasb-kori, qarindoshlik holati kabilar nazarda tutiladi. Sh.Safarovning fikrlariga ko‘ra, suhbatdoshga nisbatan bildirilayotgan munosabat salbiy yoki ijobiy, ochiq yoki yashirin, bilvosita yoki bevosita ko‘rinishlarga ega bo‘lishi mumkin. [Safarov, 2008:212]

Yurtni xarob ayladi amaldorlik illati,
Amaldorda millat yo‘q, amaldordir millati.
Amaldorda tarix yo‘q, tarixingga tupurar,
Kerak bo‘lsa tilingni bu dunyodan supurar.

Ushbu she’riy parchada qo‘llangan “amaldor” leksemasi shaxsning jamiyatdagi mansabi va ijtimoiy maqomiga ishora qilmoqda. Quyidagi she’rda esa qarindoshlik atamalari orqali yuzaga kelgan deyksisni uchratish mumkin:

– **Oyi**, urush nima, ayting,
U nimadir – nomi o‘lim?
– Bo‘lsa aytar edi **otang**…
Urush – bu yo‘q narsa, **o‘g‘lim**…

Xulosa qilib aytganda, deyksis hodisasi tilshunoslikda o‘rganilishi kerak bo‘lgan dolzarb mavzulardan biri bo‘lib, uning tadqiqi orqali nutq ishtirokchilarining nutq vaziyati bilan bog‘liq pragmatik maqsadini aniqlash mumkin bo‘ladi. Shuningdek, nutq ishtirokchilarining nutqni mantiqiy-semantik jihatdan to‘g‘ri qabul qilishlari uchun deyktik birliklarning qo‘llanilishi muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – Москва: Языки русской культуры, 1999.
2. Мисайлова Т.И. Дейксис как актуализация компонентов речевой ситуации и денотативного содержания в повествовательном и описательном художественных текстах: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Улан-Уде, 2005. – 24 с.
3. Davlatova R.H. O‘zbek tilining deyktik birliklari. Filol.fan.dok (DSc) diss. Avtoref. – Toshkent, 2020.
4. Hakimov M. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. –Toshkent: “Akademnashr”, 2013.
5. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2008.
6. Xujamkulova M. Sodda gapda kommunikatsiya va pragmatika munosabati. Monografiya. – Toshkent, 2023.